

Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 6 855,7 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 138,0 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati *	6 855,7	138,0
Guliston sh.	1 039,8	103,8
Shirin sh.	344,4	108,1
Yangiyer sh.	629,2	148,0
Boyovut	127,0	112,9
Guliston	168,6	119,2
Mirzaobod	1 948,0	2,2 m.
Oqoltin	108,2	111,2
Sardoba	401,6	2,4 m.
Sayxunobod	141,8	110,2
Sirdaryo	404,0	104,2
Xovos	159,0	103,4

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 62,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 136,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 35,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 145,4 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 97,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	466,4	615,4	
<i>o'sish sur'ati, %</i>	185,7	124,0	
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 476,5	1 789,9	197,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	146,3	155,7	124,8
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 310,3		
<i>o'sish sur'ati, %</i>	110,5		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 081,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 136,9 % ni va ularning umumiy hajmidagi ulushi 0,2 % ga kamayib, 15,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,1 % to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 148,8 % ni tashkil etgan holda 4 463,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 19,1 % ni yoki 1 310,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati *	1 081,8	4 463,6	1 310,3	136,9	148,8	110,5
Guliston sh.	43,5	848,4	147,9	97,8	104,5	102,1
Shirin sh.	240,5	95,6	8,3	105,8	114,5	109,2
Yangiyer sh.	-	605,7	23,5	-	151,8	88,9
Boyovut	31,1	41,5	54,4	4,8 m.	75,0	107,4
Guliston	33,2	101,5	33,9	192,4	113,6	97,1
Mirzaobod	195,1	1 720,7	32,2	95,9	2,7 m.	102,1
Oqoltin	29,6	55,5	23,1	135,4	105,6	100,6
Sardoba	212,0	162,5	27,1	11,8 m.	135,1	103,5
Sayxunobod	7,8	105,2	28,8	76,2	115,5	105,1
Sirdaryo	77,2	195,1	131,7	161,3	86,6	115,3
Xovos	28,6	81,1	49,3	73,7	123,6	99,7

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sardoba tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 11,8 m.), Boyovut tumanida (4,8 m.) va Guliston tumanida (192,4 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,7 m.), Yangiyer shahri (151,8 %) va Sardoba tumani (135,1 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xazratqulov
67 236-70-00 (2020)

